SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 20 - may 156-9-128-Q/24 Sirdaryo tuman hokimligi

Sirdaryo tumani umumfoydalanuvda bo‘lgan 4K643B “Sirdaryo shahriga kirish yo‘li” avtomobil yo‘lining PK 11+00 dan PK 15+50 oralig‘ida (1.100 km dan 1.500 km oralig‘i) kesishgan chorrahasiga yo‘l harakati qoidalarining 3.27 “To‘xtash va to‘xtab turish taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida.

Sirdaryo tumani hududida transport vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘l transport hodisalarining oldini olish transport vositalarining harakatlanishini tartibga solish borasida tuman hududidan o‘tuvchi yo‘llarning ayrim joylariga zaruriy yo‘l belgilarini o‘rnatish maqsadida, ushbu orqali yo‘l harakatini tartibga solish hamda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-son “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2013-yil 10-apreldagi O‘RQ—348-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati” to‘g‘risidagi qarorining 6 va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo tumani IIB 2024-yil 24-yanvardagi “4K643B “Sirdaryo shahriga kirish yo‘li” avtomobil yo‘lining PK 11+00 dan PK 15+50 oralig‘ida (1.100 km dan 1.500 km oralig‘i) kesishgan joylarga 3.27 To‘xtash va to‘xtab turish taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risi”dagi 07/50-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Tuman yo‘nalishida bo‘lgan avtomobil yo‘llarining 4K643B “Sirdaryo shahriga kirish yo‘li” avtomobil yo‘lining PK 11+00 dan PK 15+50 oralig‘ida (1.100 km dan 1.500 km oralig‘i) kesishgan joylarga 3.27 To‘xtash va to‘xtab turish taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

3. Sirdaryo tumani Ichki ishlar boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi guruhi rahbari Sh.Aliboyev, Sirdaryo tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi rahbari R.Abduvohidov, tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i Sh.Aliboyevlarga vakolatlari doirasida kelishuv asosida yo‘l belgilarini me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan ko‘rinishda, balandlikda o‘rnatilishini ta’minlash;

Yo‘llarni saqlash va ularni yo‘l belgilari, axborot ko‘rsatkichlari, yo‘l harakatini tartibga solishning boshqa vositalari bilan jihozlash bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

4. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb saytiga (S.Jo‘raboyev) joylashtirilsin hamda “Sirdaryo” gazetasi bosh muharriri (D.Esanova) ushbu qaror matnini chop etilishi vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilgan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini ta’minlash va nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari B.Berdiyev

zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.Xatamov**